

## ESHITISHDA NUQSONI BO'LGAN SHAXSLARNI XOTIRASINI RIVOJLANTIRISH

РАЗВИТИЕ ПАМЯТИ У ЛЮДЕЙ С НАРУШЕНИЕМ СЛУХА  
DEVELOPMENT OF MEMORY OF HEARING IMPAIRED PERSONS

**Rahmatova Shirin Nig'mon qizi**

Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti.

Surdopedagogika va inklyuziv ta'lif kafedrasi o'qituvchisi

**Sattarova Hulkar Xolmo'min qizi**

Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti

Surdopedagogika va inklyuziv ta'lif yo'nalishi 303-guruh talabasi

**Annotasiya:** Mazkur maqolada eshitishda nuqsoni bo'lgan shaxslarni xotirasini rivojlantirish bo'yicha amalga oshiriladigan ishlar yuzasidan ma'lumotlar berib o'tilgan.

**Аннотация:** В данной статье представлена информация о мероприятиях, которые необходимо проводить для развития памяти у людей с нарушением слуха.

**Annotation:** This article provides information on the activities to be carried out to develop the memory of people with hearing impairment.

**Kalit so'zlar:** Xotira, ixtiyoriy va ixtiyorsiz xotira, xotirani rivojlantiruvchi metodlar.

**Ключевые слова:** Память, произвольная и непроизвольная память, методы развития памяти.

**Key words:** Memory, voluntary and involuntary memory, memory development methods.

Xotira oldin idrok etilganni ifodalash, saqlash va tasvirlash bilan belgilanuvchi ongli ruhiy jarayondir. Xotirada insonning oldingi tajribasi, uning faoliyati, idroki, qayg'urishi ifodalanadi. U inson faoliyatida muhim o'rinn tutadi. Ma'lumki sog'lom eshitadigan insonlarda ma'lumotlarni eshitish orqali eslab qoladi. Eshitishida nuqsoni bo'lgan shaxslarda eshitish qobilayatining yo'qolganligi sababli ularda ko'rvu xotirasi ustunlik qiladi. Bu esa kar va zaif eshituvchi o'quvchilarda ko'rish orqali predmetlarni eslab qolishi kuzatiladi. Tashqi olam bilan aloqa natijalarini saqlash va ifodalash xotira asosini tashkil etuvchi tasavvur shaklida amalga oshadi. Xotira tasavvuri — bu predmet va hodisalarning hissiy ko'rgazmali umumlashgan obrazlaridir. Xotira faoliyati natijasi sifatida ular o'tmishida inson tomonidan idrok etilgan predmet, hodisalarni ifodalaydi, bevosita faoliyat natijasida sezgi obrazlari idrok yuzaga keladi. Xotira o'tm ishning ifodasi sifatida quyidagi asosiy funksiyalari yordamida amalga oshadi: ilk idrok etilgan

materialni eslash, saqlash, tanish va bayon etish. Eslab qolish ixtiyoriy va ixtiyorsiz bo'ladi. T.V. Razonova tadqiqotlarida eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarpredm etni joylashuv o'rni bilan aloqasini ixtiyorsiz ravishda eslab qolishi kuzatilgan. Bu amalyot jarayonida bolalarning sog'lom eshitadigan tengdoshlari qatori predmetlarning joylarini aniq ko'rsatib o'tganlar. Eshitishda nuqsoni bo'lgan shaxslarning mayda detallargacha eslab qolganligi kuzatilgan. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarda so'zlarni egallash maxsus ta'lim jarayonida amalga oshadi va sog'lom bolalardan shu xususiyati bilan orqada qoladi. Tadqiqotlarning birida eshitishida nuqsoni bo'lgan va sog'lom bolalarning 3 turdag'i so'zlarni idrok etish tadqiq etilgan.

1. Ko'rish orqali idrok etilayotgan predmet va hodisalarni ifodalovchi so'zlar.
2. Taktik analizatori yordamida idrok etiluvchi predmet belgisini ifodalovchi so'zlar.
3. Ovozli hodisalarni ifodalovchi so'zlar.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarda ko'rish orqali eslab qolish sog'lom bolalara bilan bir xilligi kuzatiladi. Ovoz orqali eslab qolish esa eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarda qiyinchiliklar kuzatiladi. Teri orqali sezish jarayonida esa eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarda sog'lom bolalarga nisbatan ustunlik kuzatiladi. Bundan kelib chiqadiki eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarda ko'rish va teri orqali eslab qolish ustunlik qiladi.

Shuningdek, o'quvchilarni ixtiyoriy va ixtiyorsiz xotirani qo'llashga o'rgatish muhimdir. O'r ganilayotgan materialni o'tilgani bilan qiyoslashga o'rgatish ham xotiraning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarda uzoq muddatli xotirada eslab qolishga o'rgatish savol-javob orqali amalga oshiriladi. Savol-javob faqat o'tilayotgan mavzu bo'yicha emas, balki o'tilgan mavzu bo'yicha bo'lishi kerak. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar xotirasini rivojlantirishda yaxshi samara beradi. Bu takror turi o'quvchilarda qiyoslash operatsiyasini faollashtiradi, fikr operatsiyasini rivojlantiradi. Eshitishida nuqsoni bo'lgan o'quvchini vaqtlar bo'yicha ajratilgan takrorlashga o'rgatish muhimdir. Agar eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarga eslab qolish uchun berilgan material hajmiga ko'ra katta va oson bo'lsa, uni hammasini yodlash talab etiladi. Eshitishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilarni so'zlarni ma'nodosh so'zlar bilan almashtirish o'qilgan matn mazmunini o'z so'zlari bilan bayon qilishga o'rgatish muhimdir. Bu eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning fikrlash xotirasini rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Kar va zaif eshituvchi bolalarning obrazli xotirasini tekshirishda T.Y. Ribakov (1911) tomonidan tavsiya etilgan «Shaklni top», D. Vekslerning subtest shkalasi metodikalaridan foydalaniildi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar natijasida eshitishda nuqsoni bo'lgan shaxslarda narsa va hodisalarni xotirada saqlab qolish bir muncha qiyin kechadi. Ularning xotirasida saqlab qolish uchun muntazam

ravishda savol-javoblar o'tkazilishi ko'rgazmali materiallar yordamida takrorlash va so'zlash orqali amalga oshiriladi. Asosiy ish jarayonlari ko'ruv va teri orqali eslab qolish asosida olib boriladi.

### Foydalilanigan adabiyotlar:

- 1.Pulatavo S.M Surdopsixologiya. O'quv-uslubiy majmua- T- 2021.
- 2.Mamarajabova Z.N Maxsus pedagogika (Surdopedagogika).O'quv qo'llanma-T- 2020.
3. L.R. Mo'minova, Sh.M .Amirsaidova, Z.N. Mamarajabova, M .U.Xamidova, D.B. Yakubjanova, Z.M . Djalolova, N.Z.Abidova Maxsus psixologiya O'zbekiston faylasuflari milliy jam iyati nashriyoti Toshkent — 2013.
4. Xamidova M.U. Mamarajabova Z.N. Yakubjanova D.B. Surdopsixologiya. O'quv-uslubiy qo'llanma.-T-2007.